



UDK:37.013.42(575.1)

Nazira G'ULOMOVA,

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tayanch doktoranti

E-mail: gulomovanazira424@gmail.com,

PhD, dotsent D. Boboqulova taqrizi asosida

SCIENTIFIC STUDY OF SUFI OLLOYOR'S HERITAGE AND THE SIGNIFICANCE OF THE WORK "SABOTUL OJIZIN" IN THE PEDAGOGICAL SYSTEM

Annotation

This article discusses the theoretical analysis of scientific research conducted by researchers on Sufi Olloyor and his works, as well as the spiritual and moral aspects of the work "Sabotul ojizin", its pedagogical significance.

Key words: Sufi Olloyor, theoretical analysis, scientific research, work of sabotul ojizin, pedagogical significance.

НАУЧНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ НАСЛЕДИЯ СУФИЯ ОЛЛОЙОРА И ЗНАЧЕНИЯ РАБОТЫ «САБОТУЛ ОДЖИЗИН» В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ

Аннотация

В данной статье рассматривается теоретический анализ научных исследований, проведенных исследователями суфия Олойора и его трудов, а также духовно-нравственные аспекты работы «Саботул оджизин» и ее педагогическое значение.

Ключевые слова: Суфийский Оллоюр, теоретический анализ, научное исследование, труды Саботуль Оджизин, педагогическое значение.

SO'FI OLLOYOR MEROSINING ILMIY O'RGANILISHI VA "SABOTUL OJIZIN" ASARINING PEDAGOGIK TIZIMDAGI MA'NAVY AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada So'fi Olloyor va uning asarlari ustida tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarning nazariy tahlillari hamda Rashid Zohid tomonidan sharxlangan "Sabotul ojizin" asarining ma'naviy axloqiy jihatlari, pedagogik ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: So'fi Olloyor, nazariy tahlillar, ilmiy izlanishlar, "Sabotul ojizin" asari, pedagogik ahamiyat.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida ma'rifiy axloqiy jihatdan o'z qiymatiga ega bo'lgan noyob asarlar bugungi davr talabi asosida pedagogika va boshqa sohalarida integratsion jarayonlar orqali talaba yoshlarga mazmun mohiyati yetkazilib berilmoqda. Aynan shu turkumga oid asarlardan biri bu So'fi Olloyorning "Sabotul ojizin" asaridir. Ushbu asar va uning muallifi borasida O'zbekiston hamda boshqa davlatlarda bir qancha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Chunki tasavvufchi olimning aynan "Sabotul ojizin" asari bir necha yuz yillikka oid ma'naviy hamda ma'rifiy asarlar sirasiga kiradi. Ma'naviy tarbiya zamon talablariga xos va mos bo'lgan axborot texnologiyalari bilan uyg'unlashmasa biz kutgan natijani berishi qiyin. Ma'naviy tarbiya zamonaviy ta'limda innovatsion rivojlanishning axloqiy asosini yaratadi. Ilm-fan va texnologiyalar qanchalik rivojlanmasin, agar ular ma'naviy mezonlar bilan uyg'unlashmasa, kutilgan ijobiy natijani bermaydi. Shu bois, zamonaviy ta'limda ma'naviy tarbiya innovatsion kompetensiyalar bilan bir qatorda axloqiy mas'uliyat, ijtimoiy foydalilik va insoniylik tamoyillarini shakllantirishga xizmat qiladi. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish" deb nomlangan beshinchi tamoyiliga asoslangan 71-maqсадida "Ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish" kabi vazifalar maqsad ostiga olingan bo'lib, o'zbek xalqining milliy qadriyatlarini va ma'naviy merosini asrab-avaylash, keng

ommashtirish hamda rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash[1] kabi ustuvor yo'nalishlar belgilab qo'yilgan. Klassik ma'naviy-ta'limiy qarashlarni zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan integratsiyalash nazariy va amaliy jihatdan yuqori samaradorlikka ega strategiya hisoblanadi. Turli g'oyalarga yo'g'rilgan axborot oqimining keskin ortib borishi, mafkuraviy xilma xillik, zamonaviy ta'lim va tarbiya tizimi ma'naviy strategiyalar komponentiga aylanmoqda.

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunga qadar So'fi Olloyor va uning merosi borasida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lsada, ammo pedagogik tizimda ahamiyatli jihatlari chuqur yoritilmagan. Asosan adibning hayot yo'li va ijodi borasida adabiyotshunos, tasavvufshunos izlanuvchilar tomonidan sohasiga mos tarzda yoritib berilgan. Bu asar va uning muallifi haqidagi pedagogik tizimga asoslanga tahlillar kam.

Tadqiqotning maqsadi: Mumtoz adabiyot vakili va uning asari ustida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning mazmun va mohiyati hamda ular haqida nazariy ma'lumotlarni birlashtirish. Shu bilan bir qatorda "Sabotul ojizin" asarining pedagogik ahamiyatini ilmiy asoslab berishdan iborat.

Mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlarning qisqacha tahlili. Bugungi kunga qadar So'fi Olloyor merosi ustida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Uning biografiyasi borasida o'zining davrida yashagan tazkirachilar tomonidan ma'lumotlar keltirilgan bo'lsada, keyinchalik bu jarayon ilmiy asoslar orqali yaxlitlangan. SHO'ro mustabit tuzumi davrida So'fi Olloyor asarlari aqidaviy asarlar sirasiga kirganligi bois qoralangan hamda diniy-mistik shoir tamg'asi ostida uning

faoliyatini o'rganish taqiqlangan. Mustaqillikdan keyin uning asarlariga bo'lgan qiziqish o'z mavqeini yo'qotmagan. Sababi shundaki, rus tuzumi O'rta Osiyo davlatlariga kirib kelishdan avval uning asarlari madrasalarda uch asr davomida asosiy darslik sifatida foydalanilgan. Ilmiy manbaalarda keltirilishicha dastlab uning "Sabotul o'jizin" asari XVIII-XIX asrda yashab ijod qilgan tatar olimi Tojuddin Yolchiqul o'g'li tomonidan sharxlangan va "Risolai Aziza" nomi ostida Qozon shahrida nashrlangan. Sharxlochi "Risolai Aziza"ni qizining iltimosi bilan yozgani haqida manbaalardagi ma'lumotlarda uchraydi. Ma'lumotlarga ko'ra, asarning muallifi tomonidan haqiqiy nusxasi yo'qligi sababli ko'pnusxali qo'lyozmalar turiga kiradi. Tadqiqotchi Sanobar Jo'rayeva So'fi Olloyor tarjimai xoliga qisqacha to'xtaladi hamda uning avlodlari Vaxshivor qishlog'i, SHo'rchi tumani, Samarqand shahrida istiqomat qilishayotganligi haqida ma'lumot beradi[2]. Tadqiqotchi, professor Roshid Zohidov tasavvufchi adibning merosini ikki yuz yillik o'rganilganlik tarixiy xronologik tizimda tahlil etgan[3]. Tadqiqotchi So'fi Olloyor merosini bugungi davrgacha izlanishlar olib borgan tadqiqotchilarning ishlarini o'rganib, chuqur adabiy tahlil qilgan va tazkiralari, ilmiy izlanishlar asosida So'fi Olloyor tarjimai holini ilmiy dalillar bilan izohlagan. Professor Shuhrat Sirojiddinov esa qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan 20 dan ortiq manba va xorijiy adabiyotlarga tayangan holda So'fi Olloyor haqida yangi ma'lumotlarni beradi hamda ma'lumotlar asosida o'z mulohazalarini kiritgan. Aynan "Sabotul o'jizin" asarining yozilish sabablarini adabiy tahlil qilgan[4]. Olim uning asarlari ideologik asarlar sirasiga kirishi haqida aytib o'tadi va ma'rifiy-tarbiyaviy ahamiyatga oid asarlar sirasiga kirishini uqtiradi. Misol uchun:

Uyalma ma'rifatni o'rganurdin,
Tanur joying bo'lur, qolsang tanurdin![5]

kabi asarda keltirilgan misralar shular jumlasidandir. YA'ni, muallif tomonidan keltirilgan baytda ma'rifatni, ilmni o'rganishga chaqiradi.

Asarlarini o'rganish jarayonida unga "BUYUK SO'FIY "deya baho beradi. Rashid Zohidov Shuhrat Sirojiddinovning ilmiy tadqiqotlarini o'rganib, unga tayangan holda uning har bir bobini adabiy tahlil ostiga olgan va o'z fikr mulohazalarini bildirgan.[5] Shu bilan bir qatorda Shuhrat Sirojiddinov ilmiy xabarligida Rashid Zohidov tomonidan 150 dan ortiq "Sabotul o'jizin" asari toshbosma va qo'lyozma nusxalari o'rganilib, shundan 25 tasi ilmiy qiyosiy tahlil uchun tanlab olingan[6] va qiyosiy tahlillar asosida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.[7] So'fi Olloyor asarlari ustida I.Suvonqulov[8], N.Allayorova[9], J.Abdupatxov,[10] L.SH.Shamsetdinova[11], R.Maxanova[12], G.Ilyasova[13]

1-jadval

Tizim elementi	An'anaviy mazmun	Zamonaviy pedagogik talqin
Maqsad	Komil inson tarbiyasi	Ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirish
Mazmun	Ilm-ma'rifat, axloq	Soft-skills, etik savodxonlik, fuqorolik mas'uliyati
Subekt	Murid-ustoz	Talaba-fassilat
Metod	Nasihati, ibrat hikmat	Case-study, refleksiya, muammoli ta'lim
Vosita	Badiiy didaktik matn	Raqamli platforma va interaktiv resurs

"Sabotul o'jizin" asosidagi an'anaviy ta'lim va zamonaviy ta'lim integratsiyasi orqali ta'lim elementlari nuqtai nazaridan talabaga yetkazish ilmiy tadqiqotning birinchi bosqichi bo'lib xizmat qiladi.

Bunda, birinchidan, pedagogik tizimning maqsadi an'anaviydan zamonaviyga yondashgan holda komil inson tarbiyasidan ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishga o'zgaradi.

Ikkinchidan mazmun jihatdan esa ilm-ma'rifat va axloqdan soft-skills etik, savodxonlik, fuqorolik mas'uliyati tomon yo'naltiriladi.

kabi tadqiqotchilar tomonidan asosan badiiy, tadqiqiy ilmiy izlanishlar olib borilgan. R.Mirzayev, I.Jabborov, A.Abdullayev, V.Abdullayev, A.Jumanazar, I.Adizova, va boshqa yosh tadqiqotchilarning ilmiy asarlarida So'fi Olloyor merosi va biografiyasi borasida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. So'fi Olloyor merosi bugungi kunda ham o'z qadr qimmatini yo'qotmaganligi yuqorida keltirilgan ilmiy o'rganilishlarda ham o'z isbotini topmoqda. Bugungi kunda ko'p marotaba tadqiqiy tahlil ostiga olinayotgan "Sabotul o'jizin" asari pedagogik jihatdan ham ahamiyatli asarlardan hisoblanadi. Aynan bu asar sharq pedagogik tafakkurida inson tarbiyasini ma'naviy asosda talqin etgan muhim manbaalardan biridir. Unda imyon tushunchasi birinchi o'rinda turadi, ya'ni,

Amalning nafi ham imyon bilandur,

Qachon yolg'iz amal qilg'on bilandur[5].

So'fi Olloyor ilmiy amal bilan bog'laydi. Bajariladigan ish va ko'zlangan natija imyon bilan amalga oshsagina u solih amal hisoblanadi. Agar oladigan ilm va bajariladigan ishga ishonch bilan yondashilmasa manfaat bo'lmaydi. Pedagogik tizim nuqtai nazaridan qaralganda, imyon tushunchasini pedagogik aksiologiya bilan bog'lash mumkin. Pedagogik aksiologiya asosida inson hayoti, tarbiya va ta'lim, pedagogik faoliyatning inson hayotidagi ahamiyatini tushunish va qaror toptirish yotadi. Ta'limni inson turmushi uchun asosiy qadriyat deb asoslash pedagogik bilimlar taraqqiyotining barcha bosqichlarida o'z o'rniga ega[15]. Shu jumladan, So'fi Olloyor yashagan davrda ham aksiologik jihatlar muhim rol o'ynagan. Ushbu asarning pedagogika sohasidagi boshqa pedagogik terminlar bilan ham bog'lash mumkin. Misol uchun pedagogik gnesologiya. Pedagogik gnesologiyada umumiy bilish nazariyasi muhim rol o'ynaydi. Masalan, asarda keltirilgan bayt yoki hikmatlar hayotiy vaziyatlar bilan birlashadi. Aynan bu pedagogik qarash asardan foydalanishda "case-study" yoki bo'lmasa "refleksiya", "sokratik metod" larni dasr jarayonida qo'llashga turtki bo'ladi.

Tahlil va xulosalar. Bugungi zamonaviylashayotgan ta'lim tizimida an'anaviy ta'lim tizimiga asoslangan tarbiyaviy ahamiyatga ega asarlarni zamon talablariga moslashtirish orqali zamonaviy kontekstlar asosida yosh avlodga yetkazish hamda bu borada zamon talablariga javob beradigan metod va texnologiyalar orqali talaba yoshlarga muhimdir. "Sabotul" o'jizin asarining pedagogik tizimda an'anaviy yondashuvlar asosida zamonaviy ta'limni ug'unlashtirish davr talabiga aylanib bormoqda.

"Sabotul o'jizin" asosidagi an'anaviy ta'lim va zamonaviy ta'lim integratsiyasi

Uchinchidan, tizimning subekt va metodi murid-ustozdan talaba-fassilatga, nasihat, hikmat, ibrat dan kabi klassik davrdagi metoddan case-study, refleksiya, muammoli ta'lim kabi zamonaviylashgan metodlarga o'zgaradi.

To'rtinchidan, tizimni talabaga yetkazib berayotgan asosiy vosita esa badiiy didaktik matndan raqamli platforma va interaktiv resursga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, "Sabotul o'jizin" asari pedagogik jihatdan shaxsning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlashga qaratilgan mukammal tarbiya konsepsiyasini o'zida mujassam etadi. U bugungi ta'lim jarayonida ham ma'naviy tarbiya,

qadriyatga asoslangan ta’lim va shaxsni har tomonlama rivojlantirish masalalarida muhim nazariy va amaliy manbaa bo’lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Prezident.uz
2. Jo‘rayeva S. “O‘zbekistonning janubiy hududlaridagi ziyoratgohlar tarixi va ularning mahalliy aholi hayotidagi tutgan o‘rni”. Monografiya. Toshkent “O‘zkitob savdo nashriyat matbaa ijodiy uyi”-2021. 140-142b
3. Zohidov R. “So‘fi Olloyor ilmiy adabiy merosining o‘rganilishi” O‘ZMU xabarlari. 2014-yil 1-son. 319-b
4. “Sabotul o‘jizin”. R.Zohidov sharhi. Toshkent-Matbaachi nashriyoti-2024. 42-60-b
5. Sirojiddinov Sh. “Ilm va taxayyul sarhadlari” Yangi asr avlodi – Toshkent-2011
6. Zohidov R. “Jamiyat-bir tariqat”. Imom al- Buxoriy saboqlari. 2002/1-son. 63-65-b
7. R.Zohidov “Sabot ul-o‘jizin” asarining manbalari, sharhlari va ilmiy-tanqidiy matnini kompleks o‘rganish muammolari Toshkent,2018
8. Islom.uz “Sabotul o‘jizin”. 07.03.2017
9. Suvonqulov I. So‘fi Olloyor va uning an‘analari. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent-1997
10. Allayarova N. “Sabot ul-o‘jizin” asarining ma’rifiy yo‘nalishi va badiiyati. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Samarqand, 2002
11. Abdupattoxov J. So‘fi Olloyor –xanafiy faqixi (“Maxzanul mute’in” asari misolida). Magistrlik dissertatsiyasi. Toshkent-2005
12. Shamssetdinova. «Рисалия Газиза» Таджетдина Ялчыгула: проблематика и поэтика: Автореф. дис.канд. филл. наук - Казань, 2002.
13. Маханова Р. Творчество Суфи Аллаяра и его традиции в татарской литературе: дисс.канд.фил.наук. – Казань, 2008.
14. Пуасова Г. Лигвотекстологические особенности произведений “Сабат ал-гаджизин” Аллаяра Суфи и “Рисала-и Газиза” Т. Ялсыгулова: дисс.канд.фил.наук. – Уфа, 2009.
15. Mardonov Sh. Pedagogik aksiologiya. O‘quv qo‘llanma. Toshkent -2013, 5-b